



**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA  
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**  
*mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya*  
*2025-yil, 12-13-noyabr*

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE  
PHILOLOGY AND TRANSLATION  
STUDIES”**  
*international scientific and practical conference*  
*November 12-13, 2025*



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA  
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**

*mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami*

*2025-yil, 12-13-noyabr*

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND  
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ALISHER NAVO’I TASHKENT STATE UNIVERSITY  
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

THE DEPARTMENT OF “TRANSLATION THEORY AND PRACTICE”

*Proceedings of the International Scientific and Practical Conference titled*

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY  
AND TRANSLATION STUDIES”**

*November 12-13, 2025*

Tashkent – 2025

**UO‘K 845.711.05**

**KBK 133.585.3** “Filologik komparativistika va tarjimashunoslik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2025. – 889 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

**Mas’ul muharrir:**  
**Shuhrat SIROJIDDINOV**

akademik

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori

**Tahrir hay’ati:**

Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Zuhridin Isomiddinov (O‘zbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italiya), Gabriela Shtoecli (Shveytsariya), Qosimboy Mamurov (O‘zbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Misr), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Yurgen Yakob Beker (Germaniya), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Xurram Raximov (O‘zbekiston), Natalya Filimonova (Rossiya), Nedim Bakirci (Turkiya), Farhad Rahimi (Eron), Xayrulla Hamidov (O‘zbekiston), Elmira Adilbekova (Qozog‘iston), Sag‘inbek O‘rinboev (Qirg‘iziston), Zulxumor Xolmanova (O‘zbekiston), Mahmadiyor Asadov (O‘zbekiston), Ziyodaxon Teshaboyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Islomjon Yakubov (O‘zbekiston), Nargiza Rashidova (O‘zbekiston), Sabohat Qahharova (O‘zbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (O‘zbekiston,) Nigora Sulaymonova (O‘zbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (O‘zbekiston), Dostonbek Ahmadov (O‘zbekiston), Dilnoza Shonazarova (O‘zbekiston).

Mazkur xalqaro konferensiya materiali filologik komparativistika va tarjimashunoslikning dolzarb nazariy hamda amaliy masalalarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yoritishga bag‘ishlanadi. To‘plamda turli milliy adabiyotlar, tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, adabiyotlararo aloqalar, qiyosiy-tipologik va qiyosiy-genetik tadqiqotlar, badiiy va maxsus matnlarni tarjima qilish muammolari, tarjima strategiyalari va ekvivalentlik masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, konferensiya materiallarida tarjima nazariyasining zamonaviy konsepsiyalari, tarjimon kompetensiyasini shakllantirish, tarjimoni o‘qitish metodikasi, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda globallashuv sharoitida tarjimaning ijtimoiy-madaniy ahamiyati kabi masalalar keng yoritiladi. Ilmiy maqolalar filologik komparativistika va tarjimashunoslik sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fanlararo integratsiyani kuchaytirishga hamda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

*Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.*

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 17-dekabrda 6-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

**UO‘K 845.711.05**

**KBK 133.585.3** Proceedings of the International Scientific-Practical Conference on the topic  
“Problems of comparative philology and translation studies”. – Tashkent, 2025. – 889 p.

ISBN 978-9910-8871-6-1

**Editor-in-Chief:**

**Shuhrat SIROJIDDINOV**

Academician

Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

**Editorial Board:**

Nozliya Normurodova (Uzbekiston), Zuhridin Isomiddinov (Uzbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italy), Gabriela Stöckli (Switzerland), Qosimboy Mamurov (Uzbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Egypt), Uzok Djoraqulov (Uzbekiston), Gulnoz Khallieva (Uzbekiston), Jürgen Yakob Beker (Germany), Kemal Yavuz Ataman (Turkiye), Khurram Rakhimov (Uzbekiston), Natalya Filimonova (Russia), Nedim Bakirci (Turkiye), Farhad Rahimi (Iran), Khayrulla Hamidov (Uzbekiston), Elmira Adilbekova (Kazakhstan), Sag‘inbek O‘rinboev (Kyrgyzstan), Zulxumor Xolmanova (Uzbekiston), Mahmadiyor Asadov (Uzbekiston), Ziyodakhon Teshaboyeva (Uzbekiston), Dilnavoz Yusupova (Uzbekiston), Islomjon Yakubov (Uzbekiston), Nargiza Rashidova (Uzbekiston), Sabohat Qahharova (Uzbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (Uzbekiston,) Nigora Sulaymonova (Uzbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekiston), Dostonbek Akhmadov (Uzbekiston), Dilnoza Shonazarova (Uzbekiston).

This international conference articles are dedicated to illuminating the current theoretical and practical issues in philological comparativistics and translation studies based on the modern scientific approaches. The collection analyzes of mutual influences between different national literatures, languages and cultures; interliterary connections; comparative-typological and comparative-genetic studies; the issues of translating literary and specialized texts; translation strategies and problems of equivalence. Furthermore, the conference materials extensively cover the topics such as: contemporary concepts in translation theory, the formation of a translator competence, methodologies for teaching translation, intercultural communication and socio-cultural significance of translation in the context of globalization. The given scientific articles are intended to scientists, researchers, doctoral students, master’s students and undergraduate students who actively working in the fields of philological comparativistics and translation studies and they serve to strengthen interdisciplinary integration as well as to ensure the harmony between theory and practice.

*The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.*

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navo‘i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on December 17, 2025.

## BADIIY ADABIYOTDA PEYZAJNING O‘RNI

*Xafiza Kuchkarova,*

*ToshDO‘TAU dotsenti, PhD*

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.12.11/FIHP4175

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada badiiy adabiyotda peyzaj masalasi va uning ifoda vositalariga to‘xtalib o‘tilgan. Peyzajning tasviriy va psixologik vazifa bajarishi ta’kidlanib, zamonaviy shveysar adabiyoti vakili Frans Holer hikoyalaridan olingan misollar yordamida tahlil qilib berilgan. Badiiy adabiyotda peyzaj asar qahramoni sifatida ham keltirilishi alohida e’tiborga olingan.

**Kalit so‘zlar:** *peyzaj, peyzaj funksiyalari, tasviriy peyzaj, psixologik peyzaj, asar qahramoni peyzaji.*

**Abstract.** This article deals with the issue of landscape in fiction and its means of expression. The descriptive and psychological function of landscape is emphasized and analyzed using examples from the stories of Franz Hohler, a representative of modern Swiss literature. Special attention is paid to the fact that landscape is also presented as a hero in fiction.

**Keywords:** *landscape, landscape functions, pictorial landscape, psychological landscape, landscape of the protagonist of the works.*

Ma’lumki, peyzaj – badiiy so‘z vositasidagi tabiat tasviri, ifodasi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda peyzaj ikki vazifani bajaradi: tasviriy va psixologik. Taniqli rus adabiyotshunosi A. B. Yesinning ta’kidlashicha: “Peyzajning eng birlamchi va sodda funksiyasi – voqea sodir bo‘lgan joyni aniqlash... peyzajning yana bir, ya’ni psixologik funksiyasi ham alohida e’tiborga molikdir”. Peyzajning tasvir turi orqali hikoyadagi voqeaning qayerda sodir bo‘lishi, shuningdek, qahramonlar xarakteri va dunyoqarashi haqidagi ma’lumotlar berilsa, psixologik funktsiya orqali esa nafaqat emosional atmosfera, balki to‘g‘ridan to‘g‘ri ruhiy kechinmalar tasviri beriladi. Bundan tashqari, peyzaj – asarda ishtirok etuvchi shaxs sifatida ham kelishi mumkin. Yuqoridagilarni inobatga olib, Frans Holer hikoyalaridagi peyzaj funksiyalarini ko‘rib chiqamiz.

Yozuvchi Frans Holer – adabiyotshunos olim Verner Veberning ta’kidlashicha, “o‘z yurti tabiati manzaralarini so‘zda chiza oladigan mohir rassom” dir. Darhaqiqat, adib Shveysariyaning go‘zal tabiatini shu qadar mahorat bilan tasvirilaydiki, unga zamondosh bo‘lgan biror-bir yozuvchida tabiat va joy tasviri bu qadar ko‘p uchramaydi. Frans Holerning mitti hikoyalarida peyzaj kuzatilmasa-da, biroq uning kichik, o‘rta hajmli va katta hikoyalarida, tog‘ hikoyalari turkumidagi hikoyalarida, ayniqsa, o‘rta hajmdagi sayohatnomalarida peyzajning o‘rni nihoyatda ahamiyatlidir.

Shunga ko‘ra, uning o‘rta hajmdagi hikoyalari peyzajini ko‘rib chiqamiz. Bunday hikoyalarga uning, asosan, sayohatnoma yo‘nalishidagi matnlari kiradi. Masalan, uning “Ko‘klam sayri” hikoyasiga to‘xtalib o‘tamiz.

“Mart oyining ikkinchi haftasi bo‘lishiga qaramay qor yog‘ishdan tinmasdi, kunning sovuqligini-ku, aytmasa ham bo‘ladi... Bugun erta tongda biroz maydalab qor yog‘di-da, kun o‘rtasiga borganda esa quyosh falakdan mo‘ralab qaradi”. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, bunday hikoyalarning deyarli hammasida tabiat o‘zgarishlari, ob-havo tasviri haqidagi ma’lumotlar keltirib o‘tiladi. “Grayfenzeyeda poyezddan tushib ko‘l bo‘ylab yura boshladim. Osmon birdaniga o‘zining ko‘k tusiga kirib oldi”. Misollaridagi quyoshning falakdan “mo‘ralashi”, osmonning birdaniga “ko‘k tus”ga kirishi tasvirlari o‘xshatish (olisetvoreniye), ya’ni tabiat kuchlarini jonlantirib tasvirlash orqali adib mahorati yanada yorqin ko‘rinadi. “Havoning avzoyi buzilib, Alpoldi tog‘lari ortidan qora bulutlar karvoni yo‘rg‘alaydi” gapida ham muallif o‘xshatish orqali havoning yaxshi emasligiga, bulutli ekanligiga ishora qilib, poetik yo‘sindagi tasvir vositasidan foydalanadi. “Janubga yo‘l” deb nomlangan hikoyasining yana bir parchasida “Qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan

maydoni katta moliya vazirligi qarshisida ulkan sher savlat to‘kib turibdi”, deya aynan sher emas, balki uning haykali mazmunida keladi. Bundan tashqari, hikoyada keltirilgan do‘konlarning “Billur g‘or”, “Ummon mo‘jizasi” kabi nomlarida adib metonimik uslubdan o‘rinli foydalanadi. Hikoyada keltirilgan olcha daraxtiga “ma‘yus olcha daraxti” hamda o‘sha daraxtning “bosh uzra soyabon” deb ta‘riflanishi ham metonimiyaning peyzajni bo‘rttirib berish uchun qo‘l kelganini inkor qilib bo‘lmaydi. Hikoya davomida “Gottfred Kellerning yo‘lovchilarga g‘amgin boqishi” holati esa adibning yana o‘xshatish unsurlaridan ziyraklik bilan foydalanganini ko‘rish mumkin.

Holerning “Shimol tomon” hikoyasidagi qishning kundalik hayotimizda duch keladigan narsalar ustidan “oppoq ko‘rpa tortgani”, sayr chog‘ida hikoyachining qarshisida “sirli o‘rmonning yastanib yotishi”, “navqiron nihollarni o‘rab turgan metall quvurlarning xira shu‘lalarini”, sayyohga “Glat daryosining peshvoz chiqishi” kabi gaplarda metaforaning ishlatilishi peyzaj tasviridagi badiiylikni oshiradi. Mazkur hikoyada poetik tasvir, romantik-lirik hissiyot yetakchilik qilishi ham kuzatiladi: “...buta va daraxtlar uzra tortilgan mayin qor parchalari o‘rmonni yanada fusunkor qilib ko‘rsatar, biroq aeroportga qo‘nayotgan samolyot parraklari shovqini-yu, yerga urilgan bu uchar otlar zarbi daraxtlar uzra qo‘ngan qor parchalarini to‘kib solardi”. Bundan tashqari, adibni “Samolyotlar qo‘nish joyining miltirayotgan qizil chiroqlari” uyga qaytishga undasa, u shimol tomonga boqqanida esa, “qosh qorayib, ko‘kda samolyotlarning parvoz” qilayotganiga guvoh bo‘larkan, navbatdagi o‘xshatish Frans Holerning hech bir yozuvchi ijodida uchramagan tashbehini ko‘ramiz: “Bu samo lochinlarining chiroqlari og‘ildan chiqib mo‘ralayotgan govmishlarning chaq nab turgan ko‘zlarini yodimga soldi”. Bunday ko‘rinishdagi peyzaj tasviri bilan muallifning romantik kayfiyati juda uyg‘un holda aks ettiriladi.

Frans Holer shu qadar ona tabiatga yaqinki, u tabiatni his etish bilan birga ishonarli tasvirlaydi. Frans Holer o‘z yurtining sirli-sehrli tabiati manzaralarini shoirona tarzda so‘z orqali ifodalab bera oladigan mahoratli yozuvchi, nabotot, o‘simlik va hayvonot olamini yaxshi anglagan adibdir. “Suvda shox-shabbalar yig‘ilib qolgan, qashqaldoq tumshug‘ida ingichka shoxchani olib kelib, yig‘ilganlarini sonini oshirishga o‘z hissasini qo‘shib qo‘ydi. Suv sathi qalin qamishzor bilan qoplangan, biroq suv qushlari sadosiga bular to‘sqinlik qilolmaydi. Qirg‘oqning qarama-qarshi tomonida bir juft ko‘kto‘rg‘ay inini himoya qilayotganini ko‘rib, qushlarning har qanday ob-havoga ham bardosh berishlariga hayratlandim”. Aytish mumkinki, adib ijodida qushlarning o‘rni katta. U tabiatni tasvirlash chog‘ida qushlarni tabiatga uyg‘unlashtiradi. “O‘rik maftunkor bo‘lib gullabdi, qayerlardandir qorayaloq sayrayotgani quloqqa chalinadi, har ikkita bog‘dan birida forzintina (erta bahorda sariq gullaydigan o‘simlik) sariq tusli nur taratib turibdilar”, “bu yerlarni Bonassolagacha bo‘lgan hududni qorayaloq xonishi egallab turibdi. Xonishga dengiz to‘lqini shovillashi orkestrlik qilar, ikkalasi jo‘rligidagi bunday ohangga goh-gohida poyezdlar shovqini ham qo‘shilar, bari bir bo‘lib qalblarga orom bag‘ishlar edi”. Yozuvchi qashqaldoq, ko‘kto‘rg‘ay, qorayaloq kabi qushlar sayrashidagi jozibadorlik orqali tabiatning maftunkor peyzajini tasvirlaydi.

“Sekin-asta momaqaldiroq o‘z maromiga barham berib, chap tomondagi o‘rmon oralab uch xil ohangda zo‘r berib sayrayotgan qush nolasini eshitaman, ikki xil ohangi baland notada, uchinchisi esa pastroq tempda sayrar edi. Bu balki sayr qo‘shig‘idir, afsus buni qush tushunmaydi. Uzoqlardan taralayotgan sas saksofonnikiga o‘xshaydi”. Qush obrazi jonlantirish orqali mayda detallarning ham kiritilishi peyzajni yanada go‘zal bo‘lishiga xizmat qiladi. Bu gapda muallif momaqaldiroqdan keyingi tabiat yanada jonlanib, o‘rmon qushlarining sayrashlarini sayr qo‘shig‘iga qiyoslaydi.

M. Sultonovanning ta‘kidlashicha: “Yozuvchi o‘z g‘oyaviy niyatini faqat qahramonlarning xatti-harakatlari orqali emas, balki ularni o‘rab turgan tabiat manzaralarini tasvirlash orqali amalga oshiradi”. Frans Holer matnlarida peyzajlar koleydoskopi asar g‘oyasini ochib berish uchun mazmunni to‘laqonli ochib berish funksiyasini bajaradi. “Nihoyat o‘rmonzor keladi. O‘rmon xuddi

hordiq, tasalli, xotirjamlik va’da qilayotgandek tuyuladi kishiga. Uning bizga aytayotgan so’zi: Bu yerda uylardan ko’ra ko’proq daraxtlar bor, deyishidir. Nazarimda bugun mendan o’zga hech kimga tasalli kerakmasdek”.

Holer hikoyalarida keltirilgan joylar bilan bir qatorda, ko’llarning, ular haqidagi ma’lumotlarning peyzaj orqali berilishi ham alohida ahamiyatga ega. Masalan, “Egelzeyeye” deb nomlangan hikoyasida Frans Holer Shveysariyadagi mazkur ko’lni ta’riflab, o’zi ham tabiat go’zalligidan hayratlanar ekan, buni kitobxonga ham o’ta mahorat bilan yetkazadi: “Yo’l-yo’lakay bir hovuzchaga nigohim tushadi, u xuddi yozdagidek tovlanib turardi. Uzoq yurganimdan so’ng orzu va sehrli ko’l – Egelzeyeye meni qarshilaydi”. Egelzeyeyening “orzu va sehrli ko’l” sifatidagi metonimik tasviri kitobxonda, albatta, o’sha joyni ko’rish ishtiyoqini uyg’otadi.

Yozuvchining tabiat manzaralarini tasvirlash barobarida ba’zi o’rinlarda, tanqidiy mulohazalarini ham ko’rish mumkin: “...ikki nafar ishchiga ko’zim tushadi, ulardan biri katta qutini ohista joyidan jildirayotganini, boshqasi esa issiq asfalt quyayotgani guvohi bo’laman” deya adib “orzu va sehrli ko’l” bo’lgan Egelzeyeye atrofidagi holatga achinadi. Hikoya qahramoni bo’lgan muallif yo’lida davom etar ekan, bundan ham achinarliroq hodisaga guvoh bo’ladi: “Keyinroq o’yin maydonchasi yonidan o’taman, bu yerda chiqindi tashish konteyneri chiqindilarni ortayotgan bir pallada yosh onalar farzandlari o’yinlarini kuzatib turishardi”. Bu gapda ko’l atrofiga nojoiz tashlangan chiqindilardan bezovta bo’lishini navbatdagi gapida ta’kidlab o’tadi: “Bu joylarni ham tabiatni himoya qilish hududiga kiritish lozimligini o’ylab qoldim”. Shu tarzda peyzaj mualliflik bahosi vositasiga aylanadi.

Yozuvchi voqealar rivojini to’xtatib, peyzajni qo’ygancha mufassal tasvirlashi yoki unga taalluqli detallarni voqealar davomida berib borishi kuzatiladi. Asarda peyzaj bajaruvchi birlamchi funktsiya voqealar kechayotgan joy va vaqt haqida tasavvur berishdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Введение в литературоведение: Учеб. пособие/ Под ред. Л. В. Чернец.– М.: Высш. шк., 2004. – С.625.
2. Введение в литературоведение: Учеб. для филол. спец. ун-тов/ Г.Н. Пospelов, П.А. Николаев, И.Ф. Волков и др.; Под ред. Г.Н. Пospelова. – 3-е изд., испр. и доп. – М.: Высш. шк., 1988. – С. 441.
3. Abrams M.H. A Glossary of Literary Terms/ Seventh Edition. –USA: Copyright,1999. – P.12.
4. Anne-Cathrin Friedrich., Dr. Martina Langermann, Thomas Numrich. Abiturwissen Literatur. Dudenverlag Mannheim, 2007.
5. Жўракулов, У. (2015). Назарий поэтика масалалари: муаллиф. Жанр. Хронотоп. Тошкент: Фафур Гулом, 353.
6. Жўракулов, У. (2017). Алишер Навоий «Хамса» сида хронотоп поэтикasi. Монография. Тошкент: Турон-икбол нашриёти, 260.
7. Жўракулов, У. (2015). Михаил Бахтин кашфиётлари. Жаҳон адабиёти журнали.–2014, декабрь.–153 с.
8. Нормуродова, Н. З. (2011). Когнитивный аспект языковой личности в художественном диалоге (на материале английского языка). *Вестник Челябинского государственного университета*, (25), 126-129.
9. Yakubov, I. A. (2022). Experimental research in the creation of a “Mini-Novel”. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 143-147.
10. Asadov, M. (2025). The concept of individualism and absurdity in Camus’ the stranger. *American Journal of Philological Sciences*, 5(03), 119-123.

11. Torayevich, A. M., Xoliqovich, X. A., & Temirxonovna, Z. Y. (2022). Poetics of artistic speech in small prose works. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(4), 680-684.
12. Asadov, M. (2022). A comparative study of the image of sisyphus in western and uzbek literature.
13. Turaevich, A. M. (2022, January). LONELINESS AND ABSURDITY IS THE BASIS OF ALBER KAMYU’S CONCEPT OF ART. In *European journal of science archives conferences series/Konferenzreihe der europäischen Zeitschrift für Wissenschaftsarchive* (Vol. 2013, p. 30).
14. Obidjonova M. (2025). Comparative analysis of speculative fiction features in some short stories of Ray Bradbury and Hojiakbar Shaykhov. *Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarning o‘rni va rivojlanish omillari*.
15. Yakubov, I., & Niyazova, M. (2023). «ЁШ ВЕРТЕРНИНГ ИЗТИРОБЛАРИ» РОМАНИДА СЕНТИМЕНТАЛ, ПРАГМАТИК ВА РАЦИОНАЛ КАЙФИЯТЛАР МУНОСАБАТИ. In *Conferences* (Vol. 1, No. 1).
16. Temirxonovna, Z. Y. (2021). Traditions of the World Novel in “Lolazor”. *European Scholar Journal*, 2(3), 54-58.
17. Hamroyev, K. (2024). ZAMONAVIY O ‘ZBEK HIKOYALARI POETIK TAKOMILI. In *Conferences* (Vol. 1, No. 1).
18. Khurramov, A. The Uniqueness of the Epic Scale in Historical Genres. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 5(3), 77-79.
19. Mamarasulova, G. (2025). THE INFLUENCE OF ORIENTAL LITERATURE ON ENGLISH POETRY AND PROSE. *Nordic\_Press*, 8(0008).
20. Юсупова, Д. (2013). Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври). Т.: Akademnashr, 11-13.
21. Mansurov S. “GULSHANI DILAFGOR” TO ‘PLAMIDAGI SHE’RLAR TASNIFI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 10. – С. 560-567.
22. Izzatillayev P. “Hasht bihisht” va “Majolis un-nafois” asarlarining matniy tadqiqi //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2022. – Т. 3. – №. 3.

<b>MUNDARIJA</b>		
<b>I SHO‘BA.</b> <b>TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI</b>		
1.	<b>Zuhriddin ISOMIDDINOV.</b> Bizdagi tarjima muammolari	5
2.	<b>Uzoq JO‘RAQULOV.</b> O‘zbek tarjimachiligi istiqbollari	9
3.	<b>Xurram RAHIMOV.</b> Alisher Navoiyning “Munojot” asari tarixi, tabdili va tarjimalari xususida	14
4.	<b>Олимджон КАСИМОВ, Мартаба СУЛТОНЗОДА.</b> Некоторые лингвистические особенности перевода лексем «Шахнаме» на русский язык	17
5.	<b>Ne‘matilla OTAJONOV.</b> Eiji Mano – boburshunos olim	22
6.	<b>Rukhsana IFTIKHAR.</b> Beautification of Mughal women	26
7.	<b>Наталья ФИЛИМОНОВА.</b> Возможности перевода при работе иностранных учащихся с художественным текстом: начальный этап изучения русского языка	30
8.	<b>Kosimboy MAMUROV, Nargiza TILAKOVA</b> Functional syntax and mystical semantics: correlating syntaxemes with sufi concepts in Alisher Navai’s Uzbek and English ghazals	34
9.	<b>Xayrulla HAMIDOV.</b> Muslimbek Yo‘ldoshevning tarjimonlik mahorati	38
10.	<b>Ирода СИДДИКОВА.</b> К вопросу взаимосвязи психолингвистики и художественного перевода	43
11.	<b>Xayrulla HAMIDOV, Zulfizarxon QORAXO‘JAYEVA.</b> Nafisiyning “Jannatning yarim yo‘lida” asaridagi personaj portretining tarjimada berilishi	46
12.	<b>Абдумажид МАДРАИМОВ, Аскарый МАДРАИМОВ.</b> Вопросы перевода научного наследия Захириддина Мухаммада Бабура и традиция перевода в библиотеке Акбара в XVI веке	51
13.	<b>Supriya BANERJEE, Iroda UMAROVA</b> Reimagining classics: Tagore, translation and the global reader	54
14.	<b>Ziyodaxon TESHABOYEVA.</b> “Boburnoma”da milliy-madaniy xususiyatli til birliklar va ularning inglizcha tarjimalari	58
15.	<b>Zulhumor MIRZAEVA.</b> Politics under the mask of poetics: Chulpon’s translations in the 1920s-1930s	62
16.	<b>Abdumajid MAMADALIYEV.</b> Badiiy matn tarjimasida milliy koloritni ifodalash muammosi	72
17.	<b>Muhammadjon ABDUVALIYEV.</b> Sinxron tarjimashunoslikning zamonaviy masalalari	74
18.	<b>Мұратбек БАҒИЛА, Кәмшат АЙМАҒАМБЕТОВА.</b> Қазақ тілін оқыту әдістемесінің жаңа парадигмалары	80
19.	<b>Shermurod SUBHON.</b> Ijodiy kengashlarda	84

20.	<b>Shermurod SUBHON.</b> Kitobxon oldida mas’uliyat	97
21.	<b>Murtazo SAYDUMAROV, Mahmudaxon SAYDUMAROVA.</b> O‘zbek adabiyotining ilk romani tarjimalarida lingvomadaniy xususiyatlar va semantik o‘zgarishlar	100
22.	<b>Mahmadiyor ASADOV.</b> Tarjima – qiyosiy adabiyotshunoslikning tadqiqot obyekti	107
23.	<b>Toshtemir ALIMOV.</b> Gender as a linguistic and cultural parameter in literary translation	113
24.	<b>Tozagul MATYOQUBOVA.</b> Ilk hasbi hol qasida va uning o‘zbek tarjimoni	116
25.	<b>Dilafruz MUHAMMADIYEVA.</b> “Boburnoma”ning turkcha tarjimasi bilan bog‘liq muammolar	120
26.	<b>Umida TURAeva.</b> Some challenges of translating forensic terminology between English and Uzbek	125
27.	<b>Елена ПАНОВА.</b> Мифопоэтическая традиция и проблемы перевода и функционирования онимов в волшебной повести «Алиса в стране чудес» Л. Кэрролла	128
28.	<b>Gulnoz MAMARASULOVA.</b> Siyosiy matn tarjimasining lingvokulturologik jihatlari	137
29.	<b>Эльнора БАГАВОВА.</b> Эволюция переводческих теорий: от традиционных подходов к современным тенденциям	140
30.	<b>Dilfuza KHUDAIBERDIEVA.</b> Translation studies: traditional and modern approaches	144
31.	<b>Gulnoz MAMARASULOVA, Ruxshona CHO‘LIYEVA.</b> Diplomatiik matnlarning tarjimada ifodalanishi	148
32.	<b>Dilshod AMIRQULOV.</b> Tarjimashunoslikda til tipologiyasi asosida komparativ yondashuv	151
33.	<b>Tozagul NASRULLAEVA.</b> Literary translation as interpretation: on the basis of Dreiser’s literary works	154
34.	<b>Мохира ЭШКУВАТОВА, Достонбек АХМАДОВ.</b> Роль лингвострановедческого компонента в обучении переводу	156
35.	<b>Islom TURDIYEV.</b> Ingliz va o‘zbek tillaridagi ayrim ish yuritish terminlarining tarjima talqinidagi muammolari	160
36.	<b>Фотима УМИРЗАКОВА.</b> Проблемы традиционных и современных подходов в немецком переводе	163
37.	<b>Shohsanam BEKMURATOVA.</b> Maqollar tarjimasida tarjimonlarining lingvomadaniy yondashuvlari	166
<b>II SHO‘BA.</b> <b>QIYOSIY TILSHUNOSLIK MASALALARI</b>		
38.	<b>Sayed Mohamed Ahmad KORAYEM.</b> Principles for developing comparative linguistic studies	171
39.	<b>Nedim BAKIRCI.</b> Milli kimlik inʃasinda halk biliminin iʃlevi	183
40.	<b>Farhad RAHIMI.</b> Beʃ, bel, bilek, elik/ el ve ilik kelimelerinin etimolojik ve anlamsal baĝlantilari	190

41.	<b>Farhad RAHIMI.</b> Nezirali'nin Çağatay türkçesi sözlüğünün yanlıslari üzerine iii	196
42.	<b>Сырга ОРУНБАЕВА, Долон МАЛДЫБАЕВ, Сагынбек ОРУНБАЕВ, Минаим МЫРЗАКМАТОВА, Жумакадыр КАРАМОЛДОЕВ.</b> Горы и их лингвистические особенности: типология высот и культурных различий	215
43.	<b>Saodat MUHAMMEDOVA, Kosimboy MAMUROV.</b> Reforming the Uzbek latin alphabet: balancing phonology and global usability	221
44.	<b>Jamoliddin YOQUBOV.</b> O‘zbek va fransuz tillarida “ona” leksemasi ifodalanishining lingvomadaniy xususiyatlari	223
45.	<b>Valijon VOSITOV.</b> Inkor kategoriyasi lingvistik voqelik sifatida	228
46.	<b>Khushnuda SAMIGOVA.</b> Identifying the semantic component of affectionate form	230
47.	<b>Nargiza DOSBAYEVA.</b> Specific features of intercultural interaction in the course of teaching foreign languages	234
48.	<b>Наргиза РАШИДОВА.</b> Арабские заимствования в узбекском языке	237
49.	<b>Ulugbek KARIMOV.</b> Evolution of the cyborg in 21st-century science fiction	240
50.	<b>Kamola ABDULLOEVA.</b> Diskursiv shaxsning grafik vositalar orqali aks etishi	243
51.	<b>Malohat BADALBAYEVA.</b> The special lexicon of emergency situations in global linguistics	246
52.	<b>Nargiza MIRZALIYEVA.</b> Abdulla Qahhor va Ernest Xeminguey hikoyalari qahramonlarining o‘ziga xos xususiyatlari: badiiy tahlil va qiyosiy yondashuv	250
53.	<b>Azizjon SHARIPOV.</b> Yozma manbalarda Hirotning tarixiy toponimikasiga doir ma’lumotlar: Shohrux Mirzo davri	253
54.	<b>Марина ИСКАКОВА.</b> Тюркоязычный мир от древности	263
55.	<b>Nargiza YUSUPOVA.</b> The impact of artificial intelligence on comparative philology and translation studies	268
56.	<b>Feruzaxon KARIMOVA.</b> Aksiolingvistikada ma’naviy qadriyatlar talqini	272
57.	<b>Zebiniso BEKMURADOVA.</b> O‘zbek va fransuz maqollaridagi xiazmlarning stilistik, semantik va lingvokulturologik tahlili	276
58.	<b>Sabohat QAHHAROVA.</b> Yassaviy hikmatlarining lingvokulturologik tahlili	279
59.	<b>Dildora KENJAYEVA.</b> “Boburnoma”da antroponimlarning etimologik o‘ziga xosligi	283
60.	<b>Gulchexra IBRAGIMOVA.</b> Ingliz tilida abbreviatura va akronimlarning lingvistik tahlili	287
61.	<b>Asror YUSUPOV.</b> Lug‘at maqolasi strukturasi nazariyasining rivojlanishi	289

<b>III SHO‘BA.</b> <b>QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI</b>		
62.	<b>Islamjan YAKUBOV.</b> Rudakiy adabiy-estetik qarashlari va lirik qahramon kechinmalari	293
63.	<b>Islamjan YAKUBOV.</b> Tragik konflikt, tragik holat va tragik qahramon	299
64.	<b>Dilnavoz YUSUPOVA, Kemal Yavuz ATAMAN.</b> Uch tazkira qiyosi	308
65.	<b>Gulnoz XALLIEVA, Sitora SHAHOBOVA.</b> “Middlemarch” va “Anna Karenina” asarlarida ayol obrazining o‘rni	316
66.	<b>Bahodir XOLIQOV.</b> Britaniya adabiyoti va o‘zbek mifologiyasida daydi yog‘dularning badiiy xususiyatlari	320
67.	<b>Gulnoz XALLIYEVA, Farangizbonu ADAMOVA.</b> “Jek Raymond” romanida Jek obrazi tahlili	323
68.	<b>Nuriddin ALTINBOYEV.</b> Qiyosiy tahlilda tipologiya va ta’sir fenomeni	326
69.	<b>Gulnoz XALLIYEVA, Iroda ABDULLAYEVA.</b> The nature of satirical characters in the works of Jonathan Swift	330
70.	<b>Mohinur SOTVOLDIYEVA, Gulnoz KHALLIEVA.</b> The poetics and typology of father figures in world literature: a comparative study	333
71.	<b>Xafiza KUCHKAROVA.</b> Badiiy adabiyotda peyzajning o‘rni	336
72.	<b>Dilafro‘z QAHNAROVA.</b> Zamonaviy o‘zbek qissachiligi: xalq an’analari va yangi badiiy shakllar	340
73.	<b>Elmira HAZRATQULOVA.</b> Temuriylar davri adabiy muhitida ustoz-shogird munosabatlari	344
74.	<b>Тоҳир ТУРДИБОЕВ, Нигора ЖЎРАЕВА.</b> Беҳбудий таълимотида ижтимоий-маърифий масалалар	347
75.	<b>Ma’suma OVIDJONOVA.</b> Ingliz va o‘zbek adabiyotida ilmiy fantastikaning narratologik asoslari	351
76.	<b>Эльмира АДИБЕКОВА, Сўлтан САНИЯТ.</b> Türk masallarında hayvan motifleri: geyik motifinin kültürel yansımaları	357
77.	<b>Эльмира АДИБЕКОВА, Сая БЕРІКҚЫЗЫ.</b> Türk-islam kimliğinin sembolü olarak Hoca Ahmet Yesevi türbesi	368
78.	<b>Эльмира АДИБЕКОВА, Гүлнұр ЕСЕНГЕЛДІ.</b> Karaşaş Ana türbesi ve halk inançlarında kadın Evliya imgesi	375
79.	<b>Дильфуза МАМЕТОВА, Малика ПРИСТАЕВА.</b> Keloğlan ile padişahin kızı masalinin Anadolu, Uygur, Gagavuz varyantlarında kahraman ideali	383
80.	<b>Карлыгаш БОРБАСОВА, Какимжан БИШМАНОВ, Мира БАЛТЫМОВА.</b> Сравнительный анализ текстов Корана, Библии и Торы по проблеме межрелигиозного диалога и укрепления общенационального единства	394
81.	<b>Улжан ТУНГАТОВА, Алуа АЛШЕР.</b> Сравнительный анализ идей толерантности в Коране и Библии	400
82.	<b>Ляззат АЛИЕВА, Möldir NIŞANHAN.</b> Masalların mitolojik mirası: şamanizm ve islam’ın izleri	404